ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

“O‘ZBEKTELEKOM” AKSIYADORLIK JAMIYATINING BARQAROR RIVOJLANISH KO‘RSATKICHLARINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASH.

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti mustaqil izlanuvchisi
Islomov Javlon Rasulovich

Annotatsiya. shbu maqolada aloqa va telekommunikatsiya korxonalarida raqobatbardoshlik darajasini oshirish jarayonida innovatsion faoliyatni boshqarishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda telekommunikatsiya subyektlarining innovatsion rivojlanish samaradorligini baholovchi besh yo‘nalishdan iborat integral model taklif etilgan. Ushbu model moliyaviy-iqtisodiy natijalar, innovatsion faoliyatning moliyaviy ko‘rsatkichlari, ichki resurs salohiyati, innovatsiyalar natijadorligi va raqamlashtirish darajasini o‘z ichiga oladi. “O‘zbektelekom” AJ misolida 2016–2021-yillar kesimida integral ko‘rsatkich **S** hisoblab chiqilgan bo‘lib, **S < 1** bo‘lgan holatlarda boshqaruv qarorlarini qayta ko‘rib chiqish, xodimlar malakasini oshirish, tashkiliy tuzilmani optimallashtirish va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish zarurligi asoslab berilgan. Maqolada, shuningdek, telekommunikatsiya korxonalarida innovatsion boshqaruv tizimini joriy etish algoritmi ishlab chiqilgan bo‘lib, u innovatsion jarayonning uzluksizligi, teskari aloqa mexanizmlarining mavjudligi va kompleks baholash tamoyillariga tayanadi. Taklif etilgan yondashuv raqamli transformatsiya sharoitida aloqa korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishning amaliy yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar. barqaror rivojlanish; “O‘zbektelekom” AJ; ekonometrik modellashtirish; ko‘p omilli regressiya; korrelyatsion tahlil; tavsifiy statistika; normal taqsimot; multikollinerlik; determinatsiya koeffitsiyenti (R^2); Fisher F-mezoni; Student t-mezoni; Durbin–Uotson mezoni; prognozlash; xizmat ko‘rsatish hajmi; mehnat unumdorligi; ish haqi; telekommunikatsiya tarmog‘i; raqamli transformatsiya.

Respublikamizda telekommunikatsiya tarmog‘ining rivojlanish ko‘rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish – mazkur tarmoq daromadiga ta’sir etuvchi omillarni miqdoriy aniqlash hamda ularni rivojlantirish bo‘yicha optimal qarorlar ishlab chiqarishga imkon beradi.

Tadqiqot jarayonida «O‘ZBEKTELEKOM» AJ da barqaror rivojlanishini oshirishning ekonometrik modeli ishlab chiqildi. Modelning statistik tanlanmasiga korxonaning 2020-2024 yillar davomidagi ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari kiritildi. Bu jarayonda natijaviy ko‘rsatkich hisoblangan barqaror rivojlanishga omillarni ta’sir etish darajasi baholandi.

Tadqiqot jarayonida «O‘ZBEKTELEKOM» AJ da mehnat unumdorligini oshirishning ekonometrik modeli ishlab chiqildi. Modelning statistik tanlanmasiga korxonaning 2013-2019 yillar davomidagi ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari kiritildi. Bu jarayonda natijaviy ko‘rsatkich hisoblangan «mehnat unumdorligi»ga kiritilgan omillarni ta’sir etish darajasi baholandi.

1-jadval

Korxonada barqaror rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar[1]

Natijaviy ko‘rsatkich: barqaror rivojlanish (tn) – Y	
Omillar	**Belgi**
Xizmat ko’rsatish hajmi (tn)	X1

[1] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

Korxonada jami ishchi-xodimlar soni (kishi)	X2
Korxonaning xizmat ko'rsatish quvvati (tn)	X3
Asosiy xizmat ko'rsatishda band bo'lganlar(kishi)	X4
Korxona o'rtacha ish haqi miqdori (mln. so'm)	X5
Ish vaqti fondi (soat)	X6

Korxonada mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar sifatida quyidagi ko'rsatkichlar olindi: xizmat ko'rsatish hajmi (t) – X1, korxonada jami ishchi-xodimlar soni (kishi) – X2, korxonaning xizmat ko'rsatish quvvati (tn) – X3, asosiy xizmat ko'rsatishda band bo'lganlar (kishi) – X4, korxonada o'rtacha ish haqi miqdori (mln. so'm) – X6, va ish vaqti fondi (soat) – X8 (2-jadval).

2-jadval

Korrelyatsion-regression tahlilga kiritilgan omillar qiymatlari[2]

	Y(t)	***X1***	***X2***	***X3***	***X4***	***X5***	***X6***
2018	10,4	7241	640	12000	585	180000	1526400
2019	12,3	7594	685	12500	617	340000	1633725
2020	12,6	8055	716	15000	638	500000	1707660
2021	13,7	8851	752	15000	645	550000	1793520
2022	16,5	10956	785	13600	662	650000	1872225
2023	15,7	11516	943	13600	735	800000	2249055
2024	25,2	19076	973	22600	758	1200000	2320605

Barqaror rivojlanishgaga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik tahlil qilishdan avval tavsifiy statistika o'tkaziladi. Tavsifiy statistika har bir omilning xususiy ko'rsatkichlarini hisoblashga imkon beradi. 2-jadvalda omillarni tavsifiy statistika qiymatlari keltirilgan.

3-jadval

Omillarning hisoblangan tavsifiy statistika qiymatlari[3]

	LNY	LNX1	LNX2	LNX3	LNX4	LNX5	LNX6
Mean (ўртача)	2.761674	9.286685	6.684004	9.643102	7.822229	13.27878	14.46096
Median (медиана)	2.685528	9.194964	6.644210	9.566815	7.620777	13.30120	14.42116
Maximum (максимум)	3.226844	9.879195	6.889591	10.02571	8.620291	14.07787	14.66655
Minimum (минимум)	2.509599	8.887515	6.461468	9.392662	7.118826	12.10071	14.23842
Std. Dev. (стандарт четланиш)	0.280445	0.394201	0.168080	0.248512	0.555464	0.651925	0.168080

[2] Muallif tomonidan « O'ZBEKTELEKOM» AJ xorijiy korxonasining statistik ma'lumotlari асосида тузилган.

[3] Muallif hisob-kitpoblari asosida tuzilgan.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

VOLUME-5, ISSUE-12

Skewness (асимметрия)	0.732335	0.630929	0.143664	0.827136	0.436993	-0.487403	0.143664
Kurtosis (эксцесс)	2.010514	1.879653	1.473242	2.106700	1.831660	2.438578	1.473242
Jarque-Bera (Жак-Бера)	1.041447	0.949155	0.804516	1.178201	0.709624	0.421813	0.804516
Probability	0.594090	0.622148	0.668808	0.554826	0.701305	0.809850	0.668808
Sum	22.09339	74.29348	53.47203	77.14482	62.57783	106.2303	115.6877
Sum Sq. Dev.	0.550544	1.087761	0.197756	0.432309	2.159783	2.975044	0.197756
Observations	8	8	8	8	8	8	8

Tavsifiy statistika asosida ekonometrik modelga kiritilayotgan har bir omilning o‘rtacha, mediana, maksimal va minimal qiymatlari, standart chetlanishi, asimmetriya va ekssess qiymatlari, normal taqsimotni tekshirish uchun Jak-Bera koeffitsiyentlari hisoblanadi. Ushbu tavsifiy statistika orqali ayrim omillarni ekonometrik modelga qo‘shish yoki qo‘shmaslik to‘g‘risida qaror qilinadi.


Demak, tavsifiy statistikada aniqlangan barcha omillar normal taqsimotga bo‘ysunishini tekshirish lozim. Quyidagi 1-rasmdan har bir omilning normal taqsimotga bo‘ysunishi, simmetrikligi va taqsimot funksiyasi zichligining o‘tkir yoki yassiligini aniqlash mumkin.

1-rasmdan ko‘rish mumkinki, natijaviy ko‘rsatkich lnY va ta’sir etuvchi omillarning lnX1, lnX2, lnX3, lnX4, va lnX5 asimmetriya koeffitsiyentlari musbat bo‘lganligi uchun taqsimot funksiyasi grafiklari ko‘proq o‘ng tomonga siljigan (ya’ni, simmetriklik buzilgan). Lekin lnX6 omilning asimmetriya koeffitsiyentlari manfiy ishoraga ega bo‘lganligi uchun, ularning taqsimot funksiyasi grafiklari chap tomonga siljigan. 3.4-rasmdagi grafiklarga e’tibor beradigan bo‘lsak, ekonometrik modelga kiritiladigan barcha omillar normal taqsimot qonuniga bo‘ysunar ekan.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12



1-rasm. Omillar bo‘yicha taqsimot funksiyalari zichliklari[4]


2-rasmda natijaviy omil lnY va ta’sir etuvchi omillarning o‘rtasidagi aloqalar keltirilgan. Bu yerda ayrim omillar natijaviy omil lnY bilan teskari bog‘langan (masalan, lnY va lnX5), ayrimlari esa to‘g‘ri bog‘langan (masalan, lnY va lnX1, lnY va lnX2 va boshqalar).

[4] Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12



2-rasm. Natijaviy omil lnY va unga ta'sir etuvchi omillar lnXi o'rtasida bog'lanishlar grafiklari[5]

Yuqorida 2-rasmda natijaviy omil lnY va unga ta'sir etuvchi omillar lnXi o'rtasida bog'lanish shakllari keltirilgan bo'lsa, quyidagi 3-jadvalda bog'lanishlar zichligi, ularning ishonchliliklari va ehtimolliklari keltirilgan.

Ushbu jadvaldan ko'rish mumkinki, xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari – bu natijaviy omil va unga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'lanish zichligini ko'rsatadi. Demak, xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari natijaviy omil (barqaror rivojlanishga, lnY) va ta'sir etuvchi omillar o'rtasida zich bog'lanishlar mavjudligini ko'rsatmoqda, ya'ni xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari qiymati 0,7 dan katta. Ammo, lnX5 va lnX7 omillar natijaviy omilga teskari ta'sir ko'rsatar ekan, chunki ular orasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentlari manfiy ishoraga ega.

3-jadval

Omillar o'rtasidagi korrelyatsion matritsa[6]

Covariance Analysis: Ordinary
Date: 04/09/25 Time: 02:16
Sample: 2018 2024
Included observations: 18

[5] Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.
[6] Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

Correlation
t-Statistic

Probability	LNY	LNX1	LNX2	LNX3	LNX4	LNX5	LNX6
LNY	1.000000						
LNX1	0.988911	1.000000					
	16.31079	-----					
	0.0000	-----					
LNX2	0.886387	0.930770	1.000000				
	4.689963	6.235973	-----				
	0.0034	0.0008	-----				
LNX3	0.900297	0.906550	0.580568	1.000000			
	5.066373	5.260815	3.058842	-----			
	0.0023	0.0019	0.0223	-----			
LNX4	0.882360	0.942426	0.955244	0.844269	1.000000		
	4.592948	6.902973	7.909790	358840	-----		
	0.0037	0.0005	0.0002	0.0084	-----		
LNX5	-0.478818	-0.474735	-0.514191	-0.083432	-0.432224	1.000000	
	-1.335961	-1.321236	-1.468512	-0.205082	-1.174059	-----	
	0.2300	0.2346	0.1923	0.8443	0.2849	-----	
LNX6	0.859635	0.902542	0.941648	0.831416	0.921351	-0.287311	1.000000
	4.121423	5.134120	6.852550	3.665151	5.805648	-0.734744	-----
	0.0062	0.0021	0.0005	0.0105	0.0011	0.4902	-----

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

Bundan tashqari 3-jadvalda juft korrelsiya koeffitsiyentlari ham mavjud bo‘lib, ular ta’sir etuvchi omillar (lnXi, lnXj) o‘rtasida bog‘lanish zichliklarini ko‘rsatadi. Bu yerda eng muhim holat bo‘lib, ta’sir etuvchi omillar bir-biri bilan zich bog‘lanmasligi kerak. Ya’ni, multikolleniarlik mavjud bo‘lmasligi lozim. Agar ikkita ta’sir etuvchi omil o‘rtasida juft korrelyatsiya koeffitsiyenti qiymati 0,7 dan kichik bo‘lsa, multikolleniarlik mavjud emas deyiladi. 3.6-jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, ayrim ta’sir etuvchi omillar o‘rtasida bog‘lanish zichliklari 0,7 dan katta ekan. Demak, ta’sir etuvchi omillar o‘rtasida multikolleniarlik mavjud ekan.

Bundan tashqari 3-jadvalda korrelyatsiya koeffitsiyentlarining ishonchliligi va ehtimolligini aniqlash bo‘yicha koeffitsiyentlar hisoblangan. Har bir korrelyatsiya koeffitsiyentining pastki qismida uning t-Styudent mezoni hisoblangan qiymati va ehtimolligi keltirilgan. Omillar o‘rtasida hisoblangan ehtimollik 0,05 dan katta bo‘lmaslik sharti qo‘yiladi. Masalan, korxonada jami ishchi-xodimlar soni ($\ln X_2$) va korxonaning ishlab chiqarish quvvati ($\ln X_3$) o‘rtasida xususiy korrelyatsiya koeffitsiyenti $r_{\ln Y,\ln X4} = 0{,}58057$, $t = 3{,}0588$ va $\text{prob.} = 0{,}0223$ ga teng.

Bu esa mazkur ikki omil o‘rtasida o‘rtacha bog‘lanish borligini, xususiy korrelyatsiya koeffitsiyenti ishonchli ekanligi va 95 foiz aniqlikda ikki omil o‘rtasida musbat bog‘lanish mavjudligini ko‘rsatadi. Juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari bo‘yicha, masalan, eksportga chiqarilgan tovar-mahsulot hajmi ($\ln X_5$) va korxona o‘rtacha ish haqi miqdori (mln. so‘m) ($\ln X_6$) o‘rtasida xususiy korrelyatsiya koeffitsiyenti $r_{\ln X4,\ln X7} = -0{,}2873$, $t = -0{,}7347$ va $\text{prob.} = 0{,}4902$ ga teng. Bu ushbu ikki omil o‘rtasida teskari sust bog‘lanish mavjudligini hamda juft korrelyatsiya koeffitsiyenti ishonchli emas ekanligini ko‘rsatadi (prob>0,05).

Demak, ko‘p omilli ekonometrik modelga kiritiladigan omillar o‘rtasida korrelyatsiya koeffitsiyentlari t-Styudent mezoni hisoblangan qiymati va ehtimolligi bo‘yicha quyiladigan talablarga javob berar ekan.

Korrelyatsion tahlildan so‘ng barcha omillarni umumiy ekonometrik modelga kiritamiz va maxsus talablarga javob bermaydigan omillarni chiqarib tashlaymiz.

Demak, keyingi bosqichda ko‘p omilli ekonometrik model tuzamiz. Umumiy holda ko‘p omilli ekonometrik model quyidagi ko‘rinishga ega:

$$y = \beta_0 + \beta_1 x_1 + \beta_2 x_2 + ... + \beta_n x_n + \varepsilon ,$$

bu yerda: y - natijaviy omil, x_i - ta’sir etuvchi omillar, ε - tasodifiy xato.

Ko‘p omilli ekonometrik modeldagi noma’lum $\beta_0, \beta_1, \beta_2, ..., \beta_n$ parametrlarini aniqlashda "eng kichik kvadratlar usuli" qo‘llaniladi.

Ko‘p omilli ekonometrik modelning noma’lum parametrlarini hisoblashda EViews dasturidan foydalandik. Ko‘p omilli ekonometrik modelni tuzishda dastlabki hisob-kitoblar shuni ko‘rsatdiki, ta’sir etuvchi $\ln X_1$, $\ln X_2$, $\ln X_3$, $\ln X_4$ ва $\ln X_5$ omillar standart xatolik, Styudent mezoni, r-qiymat bo‘yicha tekshirishlarga javob bermadi. Ya’ni, mazkur omillarning standart xatolarining yuqoriligi, Styudent mezoni bo‘yicha hisoblangan qiymatlar jadval qiymatidan kichik ekanligi va r-qiymatning 0,05 dan katta ekanligi aniqlandi. Keyingi bosqichda yuqorida keltirilgan ta’sir etuvchi $\ln X_1$, $\ln X_2$, $\ln X_3$, $\ln X_4$ ва $\ln X_5$ omillar tuzilayotgan ko‘p omilli ekonometrik model tarkibiga kiritilmaydi.

Natijada tuziladigan ko‘p omilli ekonometrik modelning hisoblangan parametrlari quyidagi 4-jadvalda keltirilgan.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

4-jadval ma'lumotlaridan foydalanib ko'p omilli ekonometrik modelning matematik ko'rinishini keltiramiz:

$$\ln y = -0{,}0678 + 1{,}0033\ln x_1 - 0{,}9850\ln x_4 - 0{,}0046\ln x_6$$

Hisoblangan ko'p omilli ekonometrik model shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish hajmi ($\ln x_1$) o'rtacha 1,0 foizga ortsa, barqaror rivojlanishga ($\ln y$) o'rtacha 1,0033 foizga ortishi mumkin ekan. Asosiy ishlab chiqarishda band bo'lganlar ($\ln x_2$) o'rtacha 1,0 foizga ortishi, barqaror rivojlanishgani ($\ln y$) o'rtacha 0,9850 foizga kamayishiga olib kelar ekan. (Ushbu teskari bog'liqlik omillar o'rtasidagi korrelyatsiya matritsasida ham o'z ifodasini topgan). Korxonada o'rtacha ish haqi miqdori ($\ln x_6$) o'rtacha 1,0 foizga oshishi, barqaror rivojlanishga hajmini ($\ln y$) o'rtacha 0,0046 foizga kamayishiga olib kelishi kuzatilmoqda.

4-jadval

Ko'p omilli ekonometrik modelning hisoblangan parametrlari[7]

Dependent Variable: LNY
Method: Least Squares
Date: 04/09/2025 Time: 02:20
Sample: 2025 2030
Included observations: 18

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
LNX1	1.003312	0.005772	173338	0.0000
LNX4	-0.985039	0.020261	-48.61714	0.0000
LNX6	-0.004586	0.002002	-2.290709	0.0214
C	-0.067806	0.079036	-0.857923	0.4393
R-squared	0.999973	Mean dependent var		2.761674
Adjusted R-squared	0.999952	S.D. dependent var		0.280445
S.E. of regression	0.001942	Akaike info criterion		-9.343358
Sum squared resid	1.51E-05	Schwarz criterion		-9.303637
Log likelihood	41.37343	Hannan-Quinn criter.		-9.611259
F-statistic	48659.43	Durbin-Watson stat		2.205778
Prob(F-statistic)	0.000000			

Ko'p omilli ekonometrik model sifatini tekshirish uchun determinatsiya koeffitsiyentini tekshiramiz. Determinatsiya koeffitsiyenti natijaviy omil necha foizga modelga kiritilgan omillardan tashkil topishini ko'rsatadi. Hisoblangan determinatsiya koeffitsiyenti (R^2 - R-squared) 0,9999 ga teng. Bu esa korxonada barqaror rivojlanishga hajmining 99,99 foizi ko'p omilli ekonometrik modelga kiritilgan omillardan tashkil topishini ko'rsatmoqda. Qolgan 0,01 foizi (1,0-0,9999) esa hisobga olinmagan omillar ta'siridir.

Ko'p omilli ekonometrik modeldagi omillarning standart xatoliklarining ham kichik qiymatlarni qabul qilganligi ham modelning statistik ahamiyati yuqori ekanligidan dalolat beradi.

[7] Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

Modellarni turli miqdordagi omillar bilan taqqoslash imkoniyati bo‘lishi va ushbu miqdordagi omillar R^2 statistikaga ta’sir etmasligi uchun odatda tekislangan determinatsiya koeffitsiyentidan foydalaniladi, ya’ni:

$$R^2_{\text{adj.}} = 1 - \frac{s^2}{s_y^2}$$

Tekislangan determinatsiya koeffitsiyenti (Adjusted R-squared) 0,9999 ga teng bo‘lishi va uning R^2 ga yaqinligi, modelning ta’sir etuvchi omillar soni o‘zgarishi atrofida qiymatlarni qabul qila olishini bildiradi.

Ko‘p omilli ekonometrik modelning statistik ahamiyatliligini yoki o‘rganilayotgan jarayonga adekvatligini (mos kelishini) tekshirishda Fisherning F-mezoni qo‘llaniladi. Fisherning hisoblangan F-mezoni qiymati uning jadvaldagi qiymati bilan taqqoslanadi. Agar $F_{\text{хисоб}} > F_{\text{жадвал}}$ bo‘lsa, u holda ko‘p omilli ekonometrik model statistik ahamiyatli deyiladi va undan natijaviy ko‘rsatkich – korxonada barqaror rivojlanishga hajmini (ln$y$) kelgusi davrlarga prognozlashda foydalanish mumkin bo‘ladi.

Demak, modelning statistik ahamiyatliligini tekshirish uchun F-mezonning jadval qiymatini topamiz. Buning uchun ozodlik darajalari $k_1 = m$ va $k_2 = n - m - 1$ hamda α ahamiyatlik darajasi bo‘yicha qiymatlarni hisoblaymiz. Ahamiyatlik darajasi $\alpha = 0{,}05$ va ozodlik darajalari $k_1 = 3$ va $k_2 = 8 - 3 - 1 = 4$ dan kelib chiqib, F-mezonning jadval qiymati $F_{\text{жадвал}} = 9{,}12$ ga teng. F-mezonning hisoblangan qiymati F_{hisob} =48659,43 ва $F_{hisob} > F_{jadval}$ sharti bajarilganligi uchun ko‘p omilli ekonometrik modelni statistik ahamiyatli deyish mumkin hamda undan korxonada barqaror rivojlanishga hajmini (lny) kelgusi davrlarga prognozlashda foydalanish mumkin bo‘lar ekan.

Ko‘p omilli ekonometrik modelning hisoblangan parametrlari (regressiya koeffitsiyentlari) ishonchliligini tekshirishda Styudentning t-mezonidan foydalaniladi. Styudentning t-mezonining hisoblangan (thisob) va jadval ($t_{жадвал}$) qiymatlarini taqqoslab, H_0 gipotezani qabul qilamiz yoki rad etamiz. Buning uchun t-mezonning jadval qiymatini tanlangan ishonchlilik ehtimoli (α) va ozodlik darajasi ($\text{d.f.} = n - m - 1$) shartlar asosida topamiz. Bu yerda n - kuzatuvlar soni, m - omillar soni.

Ishonchlilik ehtimoli $\alpha = 0{,}05$ va ozodlik darajasi $\text{d.f.} = 10 - 3 - 1 = 6$ bo‘lganda, t-mezoning jadval qiymati $t_{\text{жадвал}} = 2{,}4460$ ga teng. Har bir omil bo‘yicha t-mezonning hisoblangan qiymatlari $\alpha = 0{,}05$ aniqlikda jadval qiymatidan katta ekanligini ko‘rish mumkin (3.6-jadval). Bu esa mazkur omillarning ko‘p omilli ekonometrik modelda qatnashishlariga imkon beradi. Ko‘p omilli ekonometrik modelda $\ln X_6$ ning ehtimolligi (0,0949) $\alpha = 0{,}05$ dan katta va $\alpha = 0{,}1$ dan kichik bo‘lganligi sababli ham ushbu omilni ko‘p omilli ekonometrik modelda qoldiramiz.

Demak, ko‘p omilli ekonometrik model da barcha ta’sir etuvchi omillar modelda qoldiriladi va prognozda foydalaniladi. Ko‘p omilli ekonometrik model bo‘yicha natijaviy omil qoldiqlarida avtokorrelyatsiyani tekshirish uchun Darbin-Uotson (DW) mezonidan foydalanamiz. Hisoblangan DW qiymati jadvaldagi DW_L va DW_U bilan solishtiriladi. Agar $DW_{hisob} < DW_L$ dan kichik bo‘lsa, qoldiqlarda avtokorrelyatsiya mavjud deyiladi. $DW_{hisob} > DW_U$ dan katta bo‘lsa, qoldiqlarda avtokorrelyatsiya mavjud emas deyiladi. Darbin-Uotson mezonining pastki chegarasi qiymati DW_L=0,83 ga teng va yuqori chegarasi qiymati DW_U=1,96 ga teng. DW_{hisob}=2,205778 ga teng. Demak, $DW_{hisob} > DW_U$ bo‘lgani uchun natijaviy omil (barqaror rivojlanishga hajmi - (ln$y$)) qoldiqlarida avtokorrelyatsiya mavjud emas ekan.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

Natijaviy omil qoldiqlarida avtokorrelyatsiyaning mavjud emasligi ham yuqorida keltirilgan ko‘p omilli ekonometrik modeldan prognozda foydalanish mumkinligini ko‘rsatadi. ko‘p omilli ekonometrik modelning haqiqiy (Actual), hisoblangan (Fitted) qiymatlari va ular o‘rtasidagi farqlar (Residual) quyidagi 2-rasmda keltirilgan.

Yuqorida olingan model asosida korxonada barqaror rivojlanishga ko‘rsatkichining 2025-2030 yillar uchun prognozini amalga oshiramiz. Buning uchun har bir ta’sir etuvchi omilning vaqt bo‘yicha trend modellarini tuzamiz. Ya’ni, natijaviy omil lnY ga ta’sir etuvchi $\ln X_1$, $\ln X_4$ ва X_6 omillarni vaqtga bog‘liq deb olamiz. Vaqtga bog‘liq modellar trend modeli deb ataladi. Ularning ko‘rinishi quyidagicha: $X_i = b_0 + b_1 \cdot t$,

Korxonada ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha trend model: $\ln X_1$=8,5992+0,15277*t; Asosiy ishlab chiqarishda band bo‘lganlar bo‘yicha trend model: $\ln X_2$=6,3044+0,0489*t; Korxonada o‘rtacha ish haqi miqdori bo‘yicha trend model: $\ln X_3$=12,11506+0,2586*t.

Tatqiqotda biz tomonidan yuqorida keltirilgan omillar bo‘yicha trend modellari yordamida har bir omilning qiymatlarini 2025-2030 yillar uchun prognoz qilamiz va prognoz natijalari qiymatlarini ko‘p omilli ekonometrik modelga qo‘yib, natijaviy ko‘rsatkich – korxonada barqaror rivojlanishga ko‘rsatkichini 2025-2030 yillar uchun prognoz xisobotlarini amalga oshiramiz. Mazkur korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshirish darajasini aniqlash maqsadida kelgusi yillar uchun hisoblangan prognoz ko‘rsatkichlari 3.10-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

«O‘ZBEKTELEKOM» AK xorijiy korxonasida barqaror rivojlanishga ko‘rsatkichining 2018-2024 yildagi dinamikasi va 2025-2030 yillar uchun prognoz qiymatlari, mln. so‘m[8]

Yillar	Barqaror rivojlanishga (tn), Y	Xizmat ko’rsatish hajmi (tn), X1	Asosiy ishda band bo‘lganlar (kishi), X2	Korxonada o‘rtacha ish haqi miqdori (so‘m), X3
2018	12,4	7241	585	180000
2019	12,3	7594	617	340000
2020	12,6	8055	638	500000
2021	13,7	8851	645	550000
2022	16,5	10956	662	650000
2023	15,7	11516	735	800000
2024	25,2	19076	758	1200000
2025*	22,9	19520	852	1300000
2026*	25,9	21464	850	1872135
2027*	28,6	25007	892	2424656
2028*	31,7	29135	937	3140241
2029*	35,0	33943	984	4067015
2030*	38,7	39546	1034	5267308

Izoh: 2025* - prognoz davrining boshlanishi.


[8] Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

“O‘ZBEKTELEKOM” AK xorijiy korxonasining asosiy maqsadi o‘z biznes faoliyati ortidan foyda olish hamda o‘z biznesini doimiy kengaytirish hisoblanadi. Hozirgi kunga qadar korxona tekstil sohasida yetarli tajribaga ega bo‘lib, o‘z faoliyatini ishonch bilan olib bormoqda hamda yildan yilga o‘zining iqtisodiy ko‘rsatkichlarini oshirib bormoqda. Bularning natijasi esa korxona erishayotgan yutuqlar va ko‘rsatkichlarda yaqqol ko‘rinadi.



3-rasm. “O‘ZBEKTELEKOM” AKda barqaror rivojlanishga ko‘rsatkichining 2018-2024 yillardagi dinamikasi va 2025-2030 yillardagi prognoz qiymatlari

Javdal bo‘yicha olingan barcha omillar bo‘yicha prognoz qiymatlari quyidagi 3-rasmda keltirilgan. Tahliliy ma’lumotlarga ko‘ra, 2025 yilni bazis yili deb olsak, korxonada barqaror rivojlanishga ko‘rsatkichi 2026 - 2030 yillarda 169,0 %ga oshishi, xizmat ko’rsatish hajmini 2,0 martaga o‘sishi, asosiy ishlab chiqarishda band bo‘lganlar ulushini 121,4 %ga ko‘payishi hamda korxonada ish haqi miqdorini o‘rtacha 5267308 so‘mga oshishiga erishilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shokirovna B. Z. THE ECONOMIC ROLE OF OIL PRODUCTION IN THE BUKHARA-KHIVA REGION AND ITS SIGNIFICANCE FOR THE COUNTRY //GWALIOR MANAGEMENT ACADEMY. – С. 55.
2. Shokirovna B. Z., Xurram o‘g‘li X. S. INNOVATIVE FOUNDATIONS OF A UNIFIED ECONOMY IN THE FIELD OF RELIGIOUS EDUCATION //Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods. – 2024. – Т. 2. – №. 5. – С. 110-113.
3. ЮЛДАШЕВ, Қ., Ўзбекистонда давлат-хусусий, А. Ш., ТОЖИБОЕВА, Ш., ТОШПЎЛАТОВА, Г., ТАРАХТИЕВА, Г., & БОБОЖОНОВА, З. Biznes-Эксперт.
4. Shokirovna B. Z., Muxayyo Y. Xurram o‘g‘li XS TOPIC: DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE ENTREPRENEURIAL ACTIVITY IN UZBEKISTAN //Scientific Impulse. – 2023. – Т. 2. – №. 16. – С. 42-45.
5. Худайназарова Д. МЕТОДЫ ОЦЕНКИ РИСКОВ ВНЕДРЕНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕНДЕНЦИЙ В ТУРИСТИЧЕСКОМ БИЗНЕСЕ //Экономическое развитие и анализ. – 2024. – Т. 2. – №. 11. – С. 682-687.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

6. Худайназарова Д. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ ДЕРЕВЕНЬ //Экономическое развитие и анализ. – 2024. – Т. 2. – №. 12. – С. 435-448.

7. Xudaynazarova D. Theoretical Basis for the Formation of Tourist Villages //Economic Development and Analysis. – Т. 2. – №. 12. – С. 435-448.

8. Bobojonova Z. S. Analysis of economic efficiency of oil recovery from fields in Bukhara-Khivinsky region and ways of its implementation. – 2021.

9. BOBOJONOVA Z. Жамият ва инновациялар–Общество и инновации–. – 2021.

10. Бобожонова З. Ш., Абдуллаева Д. Innovative development of industrial production based on the principle of synergy Bobojonova Z., Abdullayeva D. 2 Инновационное развитие промышленного производства, основанного на синергетическом принципе //PROBLEMS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION. – С. 64.